



ADABIY TA'LIMDA TADQIQOTCHILIK KOMPETENSIYASINI SHAKLLANTIRISHNING METODIK SHARTLARI

Тиллаев Баходир Одилжонович
НамДУ Ўзбек адабиётшунослиги
кафедраси ўқитувчиси
E-mail: bahodirtillayev...@gmail.com

Абдивалиев Обитжон Одилжонович
НамДУ Ўзбек адабиётшунослиги
кафедраси ўқитувчиси

Annotation. The article covers the issue of forming research competence in students by directing them to small scientific research from school age. In particular, approaches such as the "Moment of Success" method, the formation of hypotheses and questions, are important in terms of students being able to pose a problem on the essence of a specific object, to put forward new ideas, to propose appropriate solutions based on this, and to direct them to creative research. aspects are analyzed.

Keywords. Research, research activity, research, problem, hypothesis, guess, hypothesis, productivity, questions, assignments.

Аннотация. В статье освещена проблема формирования исследовательской компетентности учащихся путем направления их на малые научные исследования со школьного возраста. В частности, такие подходы, как метод «Момент успеха», формирование гипотез и вопросов, важны с точки зрения способности обучающихся ставить проблему по существу конкретного объекта, выдвигать новые идеи, предлагать соответствующие решения, основанные на этом, и направить их на творческие исследования. анализируются аспекты.

Ключевые слова. Исследование, исследовательская деятельность, исследование, проблема, гипотеза, догадка, гипотеза, продуктивность, вопросы, задания.

Annotatsiya. Maqolada maktab yoshidanoq kichik ilmiy izlanishlarga yo'naltirish orqali o'quvchilarda tadqiqotchilik kompetensiyasini shakllantirish masalasi yoritiladi. Xususan, "Muvaffaqiyat daqiqasi" metodi, farazlar va savollarni shakllantirish kabi yondashuvlarning o'quvchilarda muayyan obyekt mohiyati bo'yicha muammo qo'ya olish, yangi g'oyalarni ilgari surish, shu asosda tegishli yechimlarini taklif etish, ijodiy izlanishlarga yo'naltirish borasidagi ahamiyatli jihatlari tahlilga tortiladi.

Kalit so'zlar. Tadqiqot, tadqiqotchilik faoliyati, izlanish, muammo, gipoteza, taxmin, faraz, mahsuldorlik, savollar, topshiriqlar.

Zamonaviy adabiy ta'limni rivojlantirishning hozirgi bosqichida tanqidiy va kreativ fikrlaydigan, o'z nuqtayi nazariga ega shaxsni tarbiyalash masalasi dolzarb vazifalardan biriga aylandi. Shu bois ta'lim oluvchilarning o'quv-biluv faoliyati bilan





bog'liq kognitiv ehtiyojlarini ro'yobga chiqarish, mustaqil izlanishlariga qaratilgan tadqiqotchilik faoliyatining o'ziga xos usullaridan samarali foydalanish maqsadga muvofiq. O'quvchilarning tadqiqotchilik kompetensiyasini shakllantirish muammosini izlanish muhitida ilmiy aks ettirishning qator yo'nalishlari mavjud bo'lib, ular real hayotda inson ruhiyati, o'y-kechinmalarini badiiy asar qahramonlari hayoti, his-tuyg'ularini qiyoslash orqali jamiyat va tabiat bilan o'zaro munosabatlari kontekstida tahlil qilish; adabiyot fani bo'yicha belgilangan malaka talablari asosiga qurilgan metapredmet ko'nikmalarini shakllantirish; ta'limning kelgusidagi profilini tanlash yuzasidan o'quv motivatsiyasi muammosini hal qilishga yordamlashadi.

Yuqori sinf adabiyot darslarida o'quvchilarning tadqiqotchilik kompetensiyasini shakllantirish bo'yicha qat'iy va yagona yondashuvlar mavjud emas. Bu ta'limning turli bosqichlarida o'quvchilarning yosh xususiyatlari, bilish jarayonlarining rivojlanganlik darajasi, ehtiyoj va qiziqishlari doirasida, shuningdek, DTS va o'quv dasturlarida belgilangan malaka talablari asosida o'qituvchining kreativligi asosida amalga oshiriladi. Tadqiqotchilik kompetensiyasi muammo qo'ya olish, hayotda uchrashi mumkin bo'lgan muammoli vaziyatlarga yechim topa olish layoqatiga ega bo'lgan mustaqil tafakkurli shaxsni tarbiyalash asoslaridan biri sanaladi. Bu borada metodist olim Q.Husanboyeva to'g'ri ta'kidlaganidek, "Tafakkur mustaqilligining mohiyatini, o'quvchi mustaqilligini muammoni qo'yish, yechimini topish va xulosaning to'g'riligini tekshirishdangina iborat qilib qo'yish chegaralab qo'yadi. Bilim olishga ehtiyoj, unga mustaqil yondashuv insonda erkin fikrlash bo'lganda shaxsning aqlini rivojlantirishdan tashqari, uning iroda va tuyg'ularini ham tarbiyalaydi. Shu tariqa o'quvchida shaxslik sifatleri paydo bo'ladi" [Хусанбоева, 149]. Nazarimizda, o'quvchilarning intellektual va ma'naviy rivojlanishi uchun fundamental kompetentsiya sifatida mavzu darajasida tadqiqotchilik faoliyatini yo'lga qo'yish asosiy richagga aylanadi. Shu jihatdan yondashilganda quyidagilarga tadqiqotchilik kompetensiyasini shakllantirishning muhim bosqichlari sifatida qarash mumkin:

- 1) nazariy bosqich;
- 2) tayyorgarlik bosqichi;
- 3) shakllantiruvchi bosqich;
- 4) umumlashtiruvchi bosqich.





Dastlabki bosqichda o'quvchilarning tadqiqotchilik kompetensiyasini shakllantirishga doir hissiy rag'batlantirish usullaridan bo'lgan kafolatlangan muvaffaqiyatli vaziyatni yuzaga keltirish hisoblanadi. Bunda "Muvaffaqiyat daqiqasi" ish shaklidan foydalanish samarali bo'lib, u o'qituvchi oldiga o'quvchilarni muvaffaqiyatga erishishga yo'naltirish va bunga ishonirish hamda bilimlaridagi bo'shliqlarni aniqlash va bartaraf etish vazifalarini qo'yadi.

"Muvaffaqiyat daqiqasi"ni o'tkazishda quyidagilarga amal qilinadi:

- o'quvchilar bilimidagi muammoli sohani aniqlashtirish;
- bo'shliq mavjud bo'lgan mavzu yuzasidan nazariy va amaliy topshiriqlar berish;
- belgilangan vaqt mobaynida o'quvchilarning mavzu asosidagi topshiriqlar bo'yicha mustaqil izlanishi va vazifani bajarishlarini yo'lga qo'yish;
- hamkorlikda mavzuga oid xato va izohtalab fikrlarni tanlash;
- taqdimot shaklini belgilash va chiqishlarni uyushtirish;
- o'quvchining bir daqiqadagi faoliyatini tashkil etish;
- o'quvchilarga tegnodoshlari baholari va e'tiroflari.

Yuqoridagi kabi ilk daraja ish turlari o'quvchilarning izlanish faoliyati muvaffaqiyatini ta'minlashga xizmat qiladi, o'ziga ishonchi va mas'uliyat hissini oshiradi. Kognitiv komponent sanalgan tayyorgarlikning ikkinchi darajasi jamiyat, tabiat, tafakkur, texnologiya va faoliyat usullari haqidagi bilimlar yig'indisini qamrab oladi. Bunday yo'nalishdagi bilimlarning o'zlashtirilishi o'quvchilar ongida dunyoning ilmiy manzarasi haqida tasavvur hosil qilishi, kognitiv va amaliy faoliyatga dialektik jihatdan yondashuvni nazarda tutadi.

Uchinchi darajada o'quvchilarning ilmiy-tadqiqot faoliyatiga tayyorgarligining faolligi, amaliy komponenti va kreativligi e'tiborga olinadi. Ularga reproduktiv, mahsuldor va izlanish tipidagi aqliy operatsiyalar sifatida qaraladi. Mavjud muammolar yechimini izlash, voqelikni ijodiy tarzda o'zgartirish maqsadida jarayonni tizimli amalga oshirishni ta'minlash zarur bo'ladi.

Insonning muammolarni ko'rish qobiliyati uning tafakkurini tavsiflovchi ajralmas xususiyatdir. Ko'pincha u uzoq vaqt davomida turli xil tadbirlar, pedagogik vazifani hal qilishda yordam beradigan ayrim vazifalarni bajarish orqali rivojlanaib boradi.





O'quvchilarda tadqiqotchilik ko'nikmasini integrativ yondashuv asosida shakllantirish masalasi N.Narziyevaning izlanishlarida alohida o'rganilgan. Tadqiqotchi muammoli ta'lim masalasini tahlil qilar ekan, avvalo, muammoli savol, muammoli topshiriq, muammoli vaziyat kabi tushunchalar mazmuniga to'xtaladi, ularning farqli jihatlariga aniqlik kiritadi.

Xulosa qilib aytganda, o'quvchilarning ilmiy tadqiqotchilik faoliyatiga adabiy ta'lim jarayonini tashkil etishning samarali shakli sifatida qarash mumkin. Shuningdek, u adabiyot fani bo'yicha Davlat ta'lim standartida belgilangan adabiy-nutqiy va badiiy asarlarni tahlil qilish kompetensiyalarini rivojlantirish mezonlaridan biri bo'lib, kelgusida ta'lim oluvchilarning tadqiqot yondashuvini faoliyatining turli sohalariga o'tkazish va qo'llashga tegishli shart-sharoit yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Хусанбоева Қ. Адабиёт – маънавият ва мустақил фикр шакллантириш омили. – Тошкент: Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси нашриёти, 2009. – 368 б.
2. Narziyeva N. O'quvchilarda tadqiqotchilik ko'nikmalarini integrativ yondashuv asosida shakllantirishda muammoli ta'limning o'rni // Xalq ta'limi. – Toshkent, 2017. – № 4. B. 37-42.
3. To'xliyev B., Karimov B., Usmonova K. Adabiyot [Matn]: 10-sinf: darslik-majmua. II qism / B.To'xliyev [va boshq.]. – Toshkent: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti, 2017. – 184 b.
4. O'rta ta'limining davlat ta'lim standarti va o'quv dasturi. 10–11-sinf // O'zbekiston Respublikasining qonun hujjatlari to'plami. – T.: 2017-yil 14 (774)-son, 230-modda.
5. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. Г ҳарфи. – Тошкент: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти. – 533 б. [www:ziyouz.com](http://www.ziyouz.com) kutubxonasi.

